



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING**  
**BUYRUG‘I**

**Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2024-2025-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejani tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi 637-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoni, “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini xorijiy til va zamonaviy kasblarga o‘qitish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 2-fevraldagi PQ-53-son hamda Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2017-yil 15-martdagi 140-son qarorlariga muvofiq, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun tayanch o‘quv rejani tasdiqlash maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2024-2025-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv reja 1-ilovaga muvofiq;

ta’lim o‘zbek tilida bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2024-2025-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejaga tushuntirish xati 1a-ilovaga muvofiq;

ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2024-2025-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv reja 2-ilovaga muvofiq;

ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2024-2025-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejaga tushuntirish xati 2a-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (G.Kojabayeva) ikki hafta muddatda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududidagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2024-2025-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejani ishlab chiqsin hamda O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlasin.

3. 2024-2025-o‘quv yilidan boshlab, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 2-sinfida “Informatika va axborot texnologiyalari” fani hamda 5-sinfida “Tabiiy fan (Science)” fani joriy etilsin.

4. A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti (A.Ismailov) 2024-yilning 20-avgustiga qadar umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining boshlang‘ich sinf

o'qituvchilari uchun "Informatika va axborot texnologiyalari" fani hamda 5-sinf "Tabiiy fan (Science)"ning mazmun-mohiyati bo'yicha "Biologiya", "Geografiya" fani o'qituvchilari uchun qisqa muddatli o'quv kurslarini tashkil etsin.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlariga:

umumiy o'rta ta'lim muassasalarining boshlang'ich sinflarida "Informatika va axborot texnologiyalari" hamda 5-sinfida "Tabiiy fan (Science)" fani joriy qilinishi munosabati bilan boshlang'ich sinf va "Tabiiy fan (Science)" o'qituvchilari uchun tashkil etiladigan qisqa muddatli o'quv kurslarida ishtirok etishlarini ta'minlash;

2024-2025-o'quv yili davomida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tayanch o'quv reja va uning tushuntirish xatida belgilangan vazifalarning bajarilishini muvofiqlashtirish;

umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 2024-2025-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejadan kelib chiqqan holda muassasa xodimlarining ish yuklamalari tarifikatsiyasi va dars jadvallarining ishlab chiqilishi bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borish;

2024-yilning 30-avgustiga qadar 2024-2025-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejadagi yangiliklar va tushuntirish xatining mazmun-mohiyatini har bir ta'lim muassasasiga yetkazish hamda pedagogik kengash yig'ilishlarida targ'ibot ishlarini tashkil etish vazifalari yuklatilsin.

6. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tayanch o'quv rejani bajarish va natijalarini tahlil etib borish ishlariga hududiy maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari hamda ta'lim muassasalari rahbarlari shaxsan mas'ul etib belgilansin.

7. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2023-yil 15-maydagi "Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2023-2024-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejani tasdiqlash to'g'risida"gi 125-son buyrug'i 2024-yil 31-avgust kundan o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

8. Devonxona (H.Raximbayeva) ushbu buyruqni bir kun muddatda Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari hamda vazirlik tasarrufidagi tashkilotlarga yetkazsin.

9. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

**Vazir**

Toshkent sh.,  
2024-yil 26-mart,  
94-son



**X.Umarova**

O‘zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining  
2024-yil 26-martdagi  
94-son buyrug‘iga  
1-ILOVA

**Ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun  
2024-2025-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv reja**

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Haftalik o‘quv soatlari (sinflar kesimida)											Haftalik umumiy soat
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	
<b>I.</b>	<b>Filologiya fanlari</b>	<b>9</b>	<b>11</b>	<b>11</b>	<b>11</b>	<b>12</b>	<b>12</b>	<b>10</b>	<b>10</b>	<b>10</b>	<b>9</b>	<b>8</b>	<b>113</b>
1	Ona tili va adabiyot	8	7	7	7	6	6	5	5	5	4	4	<b>64</b>
2	Rus tili		2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	<b>20</b>
3	Chet tili	1	2	2	2	4	4	3	3	3	3	2	<b>29</b>
<b>II.</b>	<b>Ijtimoiy fanlar</b>	<b>1</b>	<b>1</b>	<b>1</b>	<b>1</b>	<b>3</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>	<b>5</b>	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>32</b>
4	Tarix					2	2	3	3	3	2	2	<b>17</b>
5	Davlat va huquq asoslari								1	1	1	1	<b>4</b>
6	Tarbiya	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	<b>11</b>
<b>III.</b>	<b>Aniq fanlar</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>5</b>	<b>5</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>7</b>	<b>7</b>	<b>7</b>	<b>67</b>
7	Matematika	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	<b>55</b>
8	Informatika va axborot texnologiyalari	1	1			1	1	1	1	2	2	2	<b>12</b>
<b>IV.</b>	<b>Tabiiy va iqtisodiy fanlar</b>	<b>1</b>	<b>1</b>	<b>2</b>	<b>2</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	<b>51</b>
9	Fizika va astronomiya							2	2	2	2	3	<b>11</b>
10	Kimyo							2	2	2	2	2	<b>10</b>
11	Biologiya							2	2	2	2	2	<b>10</b>
12	Geografiya va iqtisodiyot							2	2	2	2	1	<b>9</b>
13	Tabiiy fan (Science)	1	1	2	2	2	3						<b>11</b>
<b>V.</b>	<b>Amaliy fanlar</b>	<b>4</b>	<b>5</b>	<b>5</b>	<b>5</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>3</b>	<b>3</b>	<b>51</b>
14	Musiqa madaniyati	1	1	1	1	1	1	1					<b>7</b>
15	Tasviriy san’at va chizmachilik	1	1	1	1	1	1	1	1	1			<b>9</b>
16	Texnologiya	1	1	1	1	2	2	2	1	1			<b>12</b>
17	Jismoniy tarbiya	1	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	<b>21</b>
18	Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik										1	1	<b>2</b>
<b>Jami</b>		<b>21</b>	<b>24</b>	<b>24</b>	<b>24</b>	<b>29</b>	<b>30</b>	<b>34</b>	<b>33</b>	<b>34</b>	<b>31</b>	<b>30</b>	<b>314</b>

**Ta'lim o'zbek tilida bo'lgan umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun  
2024-2025-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejaga  
TUSHUNTIRISH XATI**

**I. O'quv soatlarining taqsimlanishi**

**1. "Ona tili va adabiyot"** fani uchun ajratilgan haftalik o'quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

1-sinfda o'quv yilining 1-2-choraklarida 4 soat "Alifbe", 4 soat "Yozuv", 3-4-choraklarida 4 soat "Ona tili", 4 soat "O'qish savodxonligi" fani;

2-4-sinflarda 4 soatdan "Ona tili", 3 soatdan "O'qish savodxonligi" fani;

5-6-sinflarda 4 soatdan "Ona tili" va 2 soatdan "Adabiyot" fani;

7-8-sinflarda 3 soatdan "Ona tili" va 2 soatdan "Adabiyot" fani;

9-sinfda 2 soat "Ona tili" va 3 soat "Adabiyot" fani;

10-11-sinflarda 2 soatdan "Ona tili" va 2 soatdan "Adabiyot" fani o'qitiladi.

**2. Chet tili** fani uchun ajratilgan haftalik o'quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

1-sinfda 1 soatdan;

2-4-sinflarda 2 soatdan;

5-6-sinflarda 4 soatdan;

7-10-sinflarda 3 soatdan;

11-sinfda 2 soatdan o'qitiladi.

2024-2025-o'quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich **chet tili** fani 5-9-sinflarda intensivlikni oshirish orqali o'quvchilarda bazaviy bilim va nutqiy ko'nikmalar shakllantirish hamda 10-11-sinflarda akademik yozuv va so'zlashish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida xorijiy (*ingliz, nemis, fransuz va boshqa*) tillardan birini **chet tili** fani sifatida o'qitishda ota-onalarning talabi va o'quvchilarning xohish-istaklari, shuningdek, ta'lim muassasasida ushbu fan bo'yicha malakali fan o'qituvchisi mavjudligi inobatga olinishi lozim.

Bunda, umumiy o'rta ta'lim muassasasining Kuzatuv kengashi 1-sinflarda ota-onalarning talabi va o'quvchilarning xohish-istaklari asosida ular tomonidan tanlangan chet (*ingliz, nemis, fransuz va boshqa*) tillardan birini **chet tili** fani sifatida o'qitish to'g'risidagi iltimosnoma bilan ta'lim muassasasining Pedagogik kengashiga

murojaat qiladi. Ushbu murojaat ta'lim muassasasining Pedagogik kengashida muhokama qilinadi va kengashning ushbu fanni chet tili sifatida o'qitilishi yoki asosli sabablari ko'rsatilgan holda o'qitish imkoniyati yo'qligi to'g'risida qaror qabul qiladi.

Mazkur qaror asosida chet (*ingliz, nemis, fransuz va boshqa*) tillardan biri umumta'lim maktabida yoki ma'lum bir sinfida **chet tili** fani sifatida o'qitiladi.

**3. "Tarix"** fani uchun ajratilgan haftalik o'quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

7-8-9-sinflarda "O'zbekiston tarixi" fani haftasiga 2 soatdan, "Jahon tarixi" fani haftasiga 1 soatdan o'qitiladi;

10-11-sinflarda "O'zbekiston tarixi" fani haftasiga 1 soatdan, "Jahon tarixi" fani 1 soatdan o'qitiladi.

**4. "Matematika"** faniga ajratilgan haftalik o'quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

1-6-sinflarda "Matematika" fani haftasiga 5 soatdan;

7-11-sinflarda "Algebra" fani 3 soatdan, "Geometriya" fani 2 soatdan o'qitiladi.

**5. "Informatika va axborot texnologiyalari"** fani uchun ajratilgan haftalik o'quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

1-2- va 5-8-sinflarda 1 soatdan;

9-11-sinflarda 2 soatdan o'qitiladi.

1-2-sinflarda "Informatika va axborot texnologiyalari" fani o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga asoslanganligi sababli mazkur fan boshlang'ich sinf o'qituvchilari va 5-11-sinflarda "Informatika va axborot texnologiyalari" fani o'qituvchilari tomonidan o'qitiladi.

Bunda, ushbu fan dars soatlari Umumta'lim muassasalarida sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro'yxatlarini shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizomning (*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyunda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3271*) 15-bandida belgilangan ko'rsatkichlar ketma-ketligi asosida taqsimlanadi.

**6. "Fizika"** faniga ajratilgan haftalik o'quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

7-11-sinflarda "Fizika" fani haftasiga 2 soatdan, 11-sinfda "Astronomiya" fani haftasiga 1 soat o'qitiladi.

**7. "Geografiya va iqtisodiyot"** faniga ajratilgan haftalik o'quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

7-10-sinflarda 2 soatdan o'qitiladi.

Bunda, 8-9-sinflar uchun 0,5 soatdan "Iqtisodiy bilim asoslari" faniga ajratiladi hamda 8-9-sinflarda "Iqtisodiy bilim asoslari" fani mavzulari fan o'qituvchisi tomonidan tig'izlashtirilgan (mavzularni qo'shgan) holda o'tiladi va ushbu tig'izlashtirilgan mavzular sinf jurnali (bosma yoki elektron)da ko'rsatiladi.

11-sinfda “Tadbirkorlik asoslari” fani 1 soatdan o‘qitiladi.

**8. “Tabiiy fan (Science)”** fani uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

1-2-sinflarda 1 soatdan;

3-5-sinflarda 2 soatdan;

6-sinfda 3 soatdan o‘qitiladi.

“Tabiiy fan (Science)” fani boshlang‘ich sinflarda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va 5-6-sinflarda “Fizika”, “Biologiya”, “Geografiya” fanlari o‘qituvchilari tomonidan o‘qitiladi.

Bunda, ushbu fan dars soatlari Umumta’lim muassasalarida sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro‘yxatlarini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomning (*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyunda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3271*) 15-bandida belgilangan ko‘rsatkichlar ketma-ketligi asosida taqsimlanadi.

**9. “Tasviriy san’at va chizmachilik”** faniga ajratilgan haftalik o‘quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

1-7-sinflarda “Tasviriy san’at” fani haftasiga 1 soatdan o‘qitiladi;

8-9-sinflarda “Chizmachilik” fani haftasiga 1 soatdan o‘qitiladi.

## **II. Yakuniy qoidalar**

**10.** O‘quv jarayonini tashkil etish, xususan ayrim fanlarni ikki guruhga bo‘lib o‘qitish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomiga muvofiq amalga oshiriladi.

**11.** Mazkur namunaviy tayanch o‘quv reja va tushuntirish xati asosida har bir umumiy o‘rta ta’lim muassasasi 2024-2025-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejasini ishlab chiqadi va avgust oyidagi Pedagogik kengashning qarori bilan tasdiqlaydi.

**12.** Pedagog kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnika bazasi yetarli bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalarining ruxsati hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi bilan kelishgan holda ma’lum bir fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish maqsadida 15%gacha o‘zgartirish kiritish huquqi beriladi.

**13.** Barcha turdagi davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida mazkur o‘quv reja asosida tashkil etiladigan darslar (mashg‘ulotlar) davlat budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining  
2024-yil 26-martdagi  
94-son buyrug‘iga  
2-ILOVA

**Ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2024-2025-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv reja**

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Haftalik o‘quv soatlari (sinflar kesimida)											Haftalik umumiy soat
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	
<b>I.</b>	<b>Filologiya fanlari</b>	<b>9</b>	<b>11</b>	<b>11</b>	<b>11</b>	<b>12</b>	<b>12</b>	<b>10</b>	<b>10</b>	<b>10</b>	<b>9</b>	<b>8</b>	<b>113</b>
1	Ona tili va adabiyot	8	7	7	7	5	5	4	4	4	3	3	57
2	O‘zbek tili/Rus tili		2	2	2	3	3	3	3	3	3	3	27
3	Chet tili	1	2	2	2	4	4	3	3	3	3	2	29
<b>II.</b>	<b>Ijtimoiy fanlar</b>	<b>1</b>	<b>1</b>	<b>1</b>	<b>1</b>	<b>3</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>	<b>5</b>	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>32</b>
4	Tarix					2	2	3	3	3	2	2	17
5	Davlat va huquq asoslari								1	1	1	1	4
6	Tarbiya	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	11
<b>III.</b>	<b>Aniq fanlar</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>5</b>	<b>5</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>7</b>	<b>7</b>	<b>7</b>	<b>67</b>
7	Matematika	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	55
8	Informatika va axborot texnologiyalari	1	1			1	1	1	1	2	2	2	12
<b>IV.</b>	<b>Tabiiy va iqtisodiy fanlar</b>	<b>1</b>	<b>1</b>	<b>2</b>	<b>2</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	<b>51</b>
9	Fizika va astronomiya							2	2	2	2	3	11
10	Kimyo							2	2	2	2	2	10
11	Biologiya							2	2	2	2	2	10
12	Geografiya va iqtisodiyot							2	2	2	2	1	9
13	Tabiiy fan (Science)	1	1	2	2	2	3						11
<b>V.</b>	<b>Amaliy fanlar</b>	<b>4</b>	<b>5</b>	<b>5</b>	<b>5</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>3</b>	<b>3</b>	<b>51</b>
14	Musiqqa madaniyati	1	1	1	1	1	1	1					7
15	Tasviriy san’at va chizmachilik	1	1	1	1	1	1	1	1	1			9
16	Texnologiya	1	1	1	1	2	2	2	1	1			12
17	Jismoniy tarbiya	1	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	21
18	Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik										1	1	2
<b>Jami</b>		<b>21</b>	<b>24</b>	<b>24</b>	<b>24</b>	<b>29</b>	<b>30</b>	<b>34</b>	<b>33</b>	<b>34</b>	<b>31</b>	<b>30</b>	<b>314</b>

**Ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2024-2025-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejaga TUSHUNTIRISH XATI**

**I. O‘quv soatlarining taqsimlanishi**

**1. “Ona tili va adabiyot”** fani uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

1-sinfda o‘quv yilining 1-2-choraklarida 4 soat “Alifbe”, 4 soat “Yozuv”, 3-4-choraklarida 4 soat “Ona tili”, 4 soat “O‘qish savodxonligi” fani;

2-4-sinflarda 4 soatdan “Ona tili”, 3 soatdan “O‘qish savodxonligi” fani;

5-6-sinflarda 3 soatdan “Ona tili” va 2 soatdan “Adabiyot” fani;

7-9-sinflarda 2 soatdan “Ona tili” va 2 soatdan “Adabiyot” fani;

10-11-sinflarda 1 soatdan “Ona tili” va 2 soatdan “Adabiyot” fani o‘qitiladi.

**2. Tayanch o‘quv rejada “O‘zbek tili/rus tili”** fani uchun 2-4-sinflarda haftasiga 2 soat, 5-11-sinflarda haftasiga 3 soat ajratilgan bo‘lib, ushbu fanlar quyidagi taqsimot asosida o‘qitiladi:

ta’lim **rus** va **qardosh** tillarda olib boriladigan ta’lim muassasalarida “O‘zbek tili” fani 2-4-sinflarda 2 soatdan, 5-11-sinflarda 3 soatdan o‘qitiladi;

ta’lim **qoraqalpoq, qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman** tillarida olib boriladigan maktablarda “Rus tili” fani o‘quvchilar va ota-onalar (yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar)ning xohishiga ko‘ra, 2-sinfdan boshlab “Ona tili va adabiyot” fanidan **1 soat olinib** o‘qitilishi mumkin.

**3. Chet tili** fani uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

1-sinfda 1 soatdan;

2-4-sinflarda 2 soatdan;

5-6-sinflarda 4 soatdan;

7-10-sinflarda 3 soatdan;

11-sinfda 2 soatdan o‘qitiladi.

2024-2025-o‘quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich **chet tili** fani 5-9-sinflarda intensivlikni oshirish orqali o‘quvchilarda bazaviy bilim va nutqiy ko‘nikmalar shakllantirish hamda 10-11-sinflarda akademik yozuv va so‘zlashish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi.



Umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida xorijiy (*ingliz, nemis, fransuz va boshqa*) tillardan birini **chet tili** fani sifatida oʻqitishda ota-onalarning talabi va oʻquvchilarning xohish-istaklari, shuningdek, taʼlim muassasasida ushbu fan boʻyicha malakali fan oʻqituvchisi mavjudligi inobatga olinishi lozim.

Bunda, umumiy oʻrta taʼlim muassasasining Kuzatuv kengashi 1-sinflarda ota-onalarning talabi va oʻquvchilarning xohish-istaklari asosida ular tomonidan tanlangan chet (*ingliz, nemis, fransuz va boshqa*) tillardan birini **chet tili** fani sifatida oʻqitish toʻgʻrisidagi iltimosnoma bilan taʼlim muassasasining Pedagogik kengashiga murojaat qiladi. Ushbu murojaat taʼlim muassasasining Pedagogik kengashida muhokama qilinadi va kengashning ushbu fanni chet tili sifatida oʻqitilishi yoki asosli sabablari koʻrsatilgan holda oʻqitish imkoniyati yoʻqligi toʻgʻrisida qaror qabul qiladi. Mazkur qaror asosida chet (*ingliz, nemis, fransuz va boshqa*) tillardan biri umumtaʼlim maktabida yoki maʼlum bir sinfida **chet tili** fani sifatida oʻqitiladi.

**4. “Tarix”** fani uchun ajratilgan haftalik oʻquv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

7-8-9-sinflarda “Oʻzbekiston tarixi” fani haftasiga 2 soatdan, “Jahon tarixi” fani haftasiga 1 soatdan oʻqitiladi;

10-11-sinflarda “Oʻzbekiston tarixi” fani haftasiga 1 soatdan, “Jahon tarixi” fani 1 soatdan oʻqitiladi.

**5. “Matematika”** faniga ajratilgan haftalik oʻquv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

1-6-sinflarda “Matematika” fani haftasiga 5 soatdan;

7-11-sinflarda “Algebra” fani 3 soatdan, “Geometriya” fani 2 soatdan oʻqitiladi.

**6. “Informatika va axborot texnologiyalari”** fani uchun ajratilgan haftalik oʻquv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

1-2- va 5-8-sinflarda 1 soatdan;

9-11-sinflarda 2 soat oʻqitiladi.

1-2-sinflarda “Informatika va axborot texnologiyalari” fani oʻquvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga asoslanganligi sababli mazkur fan boshlangʻich sinf oʻqituvchilari va 5-11-sinflarda “Informatika va axborot texnologiyalari” fani oʻqituvchilari tomonidan oʻqitiladi.

Bunda, ushbu fan dars soatlari umumtaʼlim muassasalarida sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya roʻyxatlarini shakllantirish tartibi toʻgʻrisidagi nizomning (*Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyunda roʻyxatdan oʻtkazilgan, roʻyxat raqami 3271*) 15-bandida belgilangan koʻrsatkichlar ketma-ketligi asosida taqsimlanadi.

**7. “Fizika”** faniga ajratilgan haftalik oʻquv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

7-11-sinflarda “Fizika” fani haftasiga 2 soatdan, 11-sinfda “Astronomiya” fani haftasiga 1 soatdan oʻqitiladi.

**8. “Geografiya va iqtisodiyot”** faniga ajratilgan haftalik o‘quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

7-10-sinflarda 2 soatdan o‘qitiladi.

Bunda, 8-9-sinflar uchun 0,5 soatdan “Iqtisodiy bilim asoslari” faniga ajratiladi hamda 8-9-sinflarda “Iqtisodiy bilim asoslari” fani mavzulari fan o‘qituvchisi tomonidan tig‘izlashtirilgan (mavzularni qo‘shgan) holda o‘tiladi va ushbu tig‘izlashtirilgan mavzular sinf jurnali (bosma yoki elektron)da ko‘rsatiladi.

11-sinfda “Tadbirkorlik asoslari” fani 1 soat o‘qitiladi.

**9. “Tabiiy fan (Science)”** fani uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

1-2-sinflarda 1 soatdan;

3-5-sinflarda 2 soatdan;

6-sinfda 3 soat o‘qitiladi.

“Tabiiy fan (Science)” fani boshlang‘ich sinflarda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va 5-6-sinflarda “Fizika”, “Biologiya”, “Geografiya” fanlari o‘qituvchilari tomonidan o‘qitiladi.

Bunda, ushbu fan dars soatlari umumta’lim muassasalarida sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro‘yxatlarini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomning (*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyunda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3271*) 15-bandida belgilangan ko‘rsatkichlar ketma-ketligi asosida taqsimlanadi.

**10. “Tasviriy san’at va chizmachilik”** faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

1-7-sinflarda “Tasviriy san’at” fani haftasiga 1 soatdan o‘qitiladi;

8-9-sinflarda “Chizmachilik” fani haftasiga 1 soatdan o‘qitiladi.

## **II. Yakuniy qoidalar**

**11.** O‘quv jarayonini tashkil etish, xususan ayrim fanlarni ikki guruhga bo‘lib o‘qitish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomiga muvofiq amalga oshiriladi.

**12.** Mazkur namunaviy tayanch o‘quv reja va tushuntirish xati asosida har bir umumiy o‘rta ta’lim muassasasi 2024-2025-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejasini ishlab chiqadi va avgust oyidagi Pedagogik kengashning qarori bilan tasdiqlaydi.

**13.** Pedagog kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnika bazasi yetarli bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalarining ruxsati hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi bilan kelishgan holda ma’lum bir fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish maqsadida 15%gacha o‘zgartirish kiritish huquqi beriladi.

**14.** Barcha turdagi davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida mazkur o‘quv reja asosida tashkil etiladigan darslar (mashg‘ulotlar) davlat budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.